



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA SHAXSLARARO MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Ziyaqulova M.Sh.

*Termiz davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasi o‘qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: oila, munosabat, muloqot, madaniyat, ta‘lim, tarbiya, o‘qituvchi, mahorat, muhabbat, qiziqish, halollik, rostgo‘ylik, milliy qadriyatlar, mehnatsevarlik, urf-odatlar, boshlang‘ich sinf, o‘quvchilar.

Ключевые слова: семья, отношение, общение, культура, образование, воспитание, учитель, умение, любовь, интерес, честность, честность, национальные ценности, трудолюбие, традиции, начальный класс, ученики.

Key words: family, attitude, communication, culture, education, upbringing, teacher, skill, love, interest, honesty, truthfulness, national values, hard work, customs, primary class, students.

Резюме:

Ushbu maqolada o‘quvchilarda to‘g‘ri muloqot va munosabat ko‘nikmalarini takomillashtirish. O‘zbekona urf-odatlar, milliy qadriyatlarimiz-an‘analarimizni ongiga singdirish, atrofdagi insonlarga qiziqishni, muhabbatni uyg‘otish, muloqot madaniyatini shakllantirish, ota-onasi bilan hamkorlikda o‘qituvchi va murabbiylar hamda bolaning muloqotga kirishuvchanligini shakllantirish haqida ma‘lumotlar berilgan.

Резюме:

Эта статья посвящена улучшению навыков правильного общения и взаимоотношений у учащихся. Дана информация об узбекских обычаях, национальных ценностях-традициях, воспитании интереса, любви к окружающим людям, формировании культуры общения, воспитании в сотрудничестве с родителями, учителями и наставниками, а также способности ребенка к общению.

Summary:

In this article, improving the correct communication and attitude skills in students. Information was given about Uzbek traditions, national values-the absorption of our traditions into the mind, the awakening of interest, love for the people around us, the formation of a culture of communication, the formation of teachers and coaches in cooperation with their parents, and the formation of the child's accessibility to communication.

Yangi O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti negizida ta‘lim sohasidagi islohotlarda yangicha ta‘lim berish, yangicha yondashuvni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan sog‘lom mustaqil fikrlovchi, aqliy takomillashgan yuksak



axloqli va iste'dodli shaxsni jahon andozalariga mos ravishda dunyoviy bilimlar berish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston demokratik boshqaruv tamoyillariga asoslangan huquqiy davlat hamda fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ilmiy sohalarda tub islohotlar olib borilayotgan bir sharoitda yoshlarning intellektual salohiyatini yuksak darajaga ko'tarish muhim kasb etadi. Insoniy munosabatlar shunday o'zaro ta'sir jarayonlarki, unda shaxslararo munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Bunday jarayon dastlab odamlar orasida ro'y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvish-u-quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi.

Inson muloqot jarayonida bo'lishi, yoki munosabatlar tajribasi ortgan sari ular o'rtasida umumiylik, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'lib, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan yoki fikr bayon etadigan bo'lib qoladi, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig'izligi teskari reaksiyalar bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Barkamol axloq va yaxshi xulq, birdaniga paydo bo'lmaydi. Xalq, axloqiy mezonlari ko'hna ona diyor bilan, Vatan deb atalmish mo'jiza bir yurt bilan, uning jonli va jonsiz xilqati, quyoshi, havosi, bulog'-u daryolariga ruhiy rishtalar bilan bog'langan.

Bu rishtalar xuddi ona vujudidan hayot nurini oluvchi bola kindigi singari ona zaminga ulangan. Ana shuning uchun axloqiy tasavvurlarimiz, adab maktabimiz pirovard natijada millat uchun, uning obro'si va istiqboli uchun xizmat qilsagina boshqalarda ehtirom va havas tuyg'ularini uyg'otadi. Shundagina millat o'z o'tmishini, taqdirini, urf-odatlarini unutmaydi. Yaxshi fazilatlar, odatlar, an'analar va imonli kishilar siymosi avlodlar yo'lini shamchiroq, yanglig' yoritib boradi.

Dunyoda shunday bir kitob borki, u hech qachon o'qib tugatilmaydi, shunday bir musiqa asari borki, uni oxirigacha ijro etib bo'lmaydi. Bu xalq, millat hayoti, taqdiri, urf-odatlaridir. Mustaqillik tug'ilgan tillarni biyron qilib yubordi, egilgan bilaklarga kuch berdi, orzumand nigohlarga nur bag'ishladi, tafakkur ufqini kengaytirdi, millat taqdiri va insoniy ideallar qismatini adolat va istiqbol tarozisi ustiga qo'ydi. Har inson o'z qo'shig'ini aytish bilan barobar zamon va millat kuyiga quloq, tutishi ham qarz, ham farz bo'lib qoldi. Shu bois, ba'zi unutilgan yoki odatiy bir yo'sindagi fazilatlarimiz, axloqu odob sohasidagi bebaho mulkimizni eslash qanchalik ko'ngilni yashnatib yuborsa, zamona zayli bilan xalqimizga kirib qolgan yoki ta'bimizni xira qilayotgan jihatlar shunchalik dilimizga ozor beradi.



Vatan-ostonadan boshlanadi. Demak, Vatan oila ostonasidan boshlanadi. Vatanparvarlik, milliy gʻurur, milliy oʻzlikni anglash shu oilada shakllanmogʻi zarur. Burch - ota-ona oldidagi farzand burchi, farzand oldidagi ota-ona burchi va vazifalari aynan oilada shakllanishiga erishish zarur. Bu oʻrinda oila, maktab, jamoatchilik hamkorligini taʼminlash joiz. Vatanparvarlik hissini oʻz farzandi qalbiga singdirolgan ota-onaning, shunday ruh, bilan yashaydigan xalqning kelajagi porloqdir. Yurtini sevgan, uning porloq, kelajagiga ishongan har bir fuqaro, har bir kishi uchun yurt taraqqiyotiga ulush qoʻshish asosiy maqsadga aylanadi. Oila ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini taʼminlaydigan, kelajakda davomchilar qanday boʻlib yetishishiga oʻz taʼsirini koʻrsatadigan ijtimoiy makon va pedagogik omil vazifasini oʻtaydi. Inson oilada shakllanadi.

Oila muhabbat, hurmat, birdamlik va mehribonlik manbai hisoblanadi. Aynan shu qadriyatlarga har bir rivojlangan jamiyat suyanadi. Masalan, oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tigʻiz munosabatlarga kiradi. Faqat bunday tigʻizlik oilaning barcha aʼzolari oʻrtasida boʻlishi mumkin (ona-bola, qaynona-kelin va hokazo). Shaxslararo munosabatlarni oʻrganish eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki inson shaxsining eng nufuzli va yetakchi faoliyatlaridan biri boʻlgan muloqot va u orqali oʻzaro munosabatlar odamlar orasida umumiylik, oʻxshashlik, uygʻunlik kabi sifatlar paydo boʻlishiga olib keladi. Ayniqsa, oila muhitida shaxslararo munosabatlarning, chunonchi, ota-ona va farzand orasidagi munosabatlarning oʻziga xos tomonlari shaxsning hayoti, faoliyatining samarasi va mazmuniga bevosita taʼsir etadi. Yosh avlodni tarbiyalashda asosiy taʼlim -tarbiya oʻchogʻi bu oila va maktabdir.

Oilada bola tarbiyasi gʻoyat nozik va murakkab masala hisoblanib, bu ota-onadan odob, bilim, tarbiyani talab qiladi. Tarbiya ishi taʼlim muassasalari bilan oila hamda mahalla hamkorligida amalga oshiriladigan murakkab, masʼuliyatli vazifadir. Bolaning mustaqil va erkin inson sifatida rivojlanishi uchun birinchi navbatda oila mustahkamligini taʼminlash lozim. Oila jamiyat tayanchi ekanligini unutmasligimiz kerak. Oiladagi tarbiyani toʻldiruvchi bu maktab hisoblanadi. Sharq madaniyati va maʼnaviyati shu qadar noyob, betakror va jozibali boʻlib, buning asosiy sabablaridan biri oʻzbek oilasining betakror muhiti, undagi anʼanalar, rasm-rusmlar va qadriyatlarning barhayotligidir.

Zero har qanday oila inson taqdiri va kamolotini, kelajagini belgilab beruvchi omil ekanligi bilan xarakterli hisoblanadi. Ayniqsa, undagi anʼanalar, milliy qadriyatlar maʼnaviy boy, axloqan yetuk, intellektual rivojlangan



yuqori bilimli, jismonan baquvvat, har tomonlama kamol topgan shaxsni, ya'ni sog'lom avlodni tarbiyalash, voyaga etkazishda ularning o'rni va ahamiyati kattadir. Oila farovonligi-milliy farovonlikning asosidir. Oilada eng avvalo: halollik, rostgo'ylik, mehr-oqibat, or-nomus, sharm-u-hayo, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlar shakllanadi. Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, Vatanda tinchlik va osoyishtalik hukm suradi.

Oila va bola tarbiyasi muammosi hamma vaqt dolzarb masala bo'lib kelgan. Oila muhiti qanchalik axloq-odobning madaniyat qoidalari va milliy qadriyatlari asosida tashkil topgan bo'lsa, bola shaxsining to'g'ri shakllanishi uchun shart-sharoit yaratilsa, shaxs shunchalik barkamol, komil inson bo'lib yetishadi. O'zbek oilasidagi an'anaviy ta'lim-tarbiya namunalari farzandlarimizga amaliy tarzda o'rgatib, oilaviy munosabatlar madaniyatini yuksaltirishga da'vat etib shu orqali ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabalarini oqilona tashkil etish dolzarb masalalardan biridir.

O'zbek xalqi, mamlakatimizdagi boshqa qardosh xalqlar kabi yoshlarga muloqot madaniyatini shakllantirishda o'zining azaliy an'alariga ega bo'lgan. Bugungi kun vazifamiz esa, o'tmishda avlodlar tomonidan yaratilgan eng yaxshi an'analarni o'rganish va hayotimiz talablariga mos holda rivojlantirishdir. Tarbiya jarayonida mayda detal degan narsa bo'lmasligi kerak, chunki u o'z o'rnida g'oyat muhim bo'lishi mumkin. Bolani faqat u bilan gaplashganda, nasihat qilganda yoki unga biror narsa buyurgandagina tarbiyalayman deb o'ylamang. "Siz bolani turmushingizning har bir lahzasida, hattoki o'zingiz uyda yo'qligingizda ham tarbiyalaysiz. Sizning qanday kiyinishingizni, boshqalar bilan va boshqalar haqida qanday gaplashishingizni, xursand bo'lishingiz yoki tashvishlanishingiz, do'stingiz bilan qanday muomala qilishingiz, kitob o'qishingiz bularning hammasi bola uchun katta ahamiyatga ega" - degan edi tarbiyashunos olim.

Haqiqatdan ham inson farzandida shunday bir narsa borki, u oilada olgan tarbiyasini bir umr unutmaydi va doim o'sha ishga taqlid qilib yashaydi. Dono xalqimizda bir maqol bor "Qush uyasida ko'rganini qiladi". Shunday ekan farzandlarimizga yoshligidan katta e'tibor berishimiz lozim. Qadimiy, tarixiy manbalar, xalq og'zaki ijodi materiallari, sharq klassiklarining ta'lim-tarbiyaga oid asarlarini sinchiklab o'rganish shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalqi qadim zamonlardan boshlab farzandni tarbiyalash sohasida o'ziga xos an'analarga ega bo'lgan. Ota-onalarning bolalarni sevishi, o'z navbatida farzandlarning ota-onani astoydil hurmat qilishi oila tarbiyasining ko'rki bo'lib hisoblangan.



An'anaga ko'ra, farzandlar yurish-turishi va o'zaro munosabat qoidalari, yoshlarning ota-ona va kattalar oldidagi burchi, mehnati, kasb-kori va ularning inson hayotidagi roli haqidagi dastlabki tushuncha va tasavvurlarni oilada olganlar. Hayot tajribasini ko'rsatishicha, jamiyatning ravnaqi, gullab-yashnashi, farovon hayotning asosiy mezonini axloq-odob bo'lib hisoblangan. Shuning uchun ota-bobolarimiz oilaga, oilada bola tarbiyasiga, ularning ma'naviy kamoliga, axloqiga katta e'tibor berib kelganlar.

Demak, jamiyat mustahkam, ma'naviy va axloqiy jihatdan sog'lom oila bo'lishidan manfaatdordir. Shunday ekan, kattalarning farzand tarbiyasi yuzasidan mas'uliyatini, salohiyatini kuchaytirish, ularning pedagogik layoqatini oshirish, oilaviy va ijtimoiy tarbiya birligini ta'minlash davr talabidir.

Oiladagi nosog'lom muhit juda ko'p illatlar qatori, insonning o'z salomatligi holatiga bo'lgan munosabatini salbiy tomonga o'zgartirib yuborishi mumkin. Bunday o'zgarishlarning ham turlicha sabablari bor. Masalan, agar oila a'zolari ma'lum sog'lom turmush tarziga o'rgangan bo'lsalar ham, biror sabab bilan shu oilada nizo, janjal kelib chiqsa, bu holat barcha oila a'zolari tafakkurining salbiy tomonga o'zgarishiga olib keladi. Bu o'z navbatida umuman faollikning pasayishini keltirib chiqaradi. Demak, o'zaro muomaladagi sog'lom ruhiyat, samimiyat mavjud ijobiy odatlarning barqarorligini kafolatlaydi.

Xulosa qilib aytganda oilada shaxsni axloqiy shakllantirish bolaning tug'ilishidan boshlanadi. U ko'pgina omillar ta'sirida tarkib topadi. Bu omillar oilaviy munosabatlar xarakteri, ota-onalarning namunasi, ulardagi umumta'lim darajasi, umummadaniy saviyasi hamda ularning pedagogik madaniyati va nihoyat oilaviy hayotning tashkil etilishidan iborat. Bu omillar oilada bolani axloqiy tarbiyalashning mazmunini tashkil etadi va ular bir qator pedagogik xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar:

1. Arapbayeva D.K. Sharq mutafakkirlarining farzand tarbiyasi haqidagi fikrlari. Oila va maktab. 2015. -128 b.
2. Abdullayev T. Turmush sohasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarining dialektikasi: f.f.d.... diss. - Toshkent, 1992. - 257 b.
3. Ta'limni rivojlantirishning falsafiy va psixologik muammolari: Ta'limni rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti. M.: Intor, 1994.-128 b .
4. Mardonov Sh. Pedagogik ta'lim tizimida ta'limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish.- T.: Fan, 2006. -232 b.
5. Nazarov K. Qadriyatlar falsafasi. Toshkent. Faylasufflar milliy jamiyati nashriyoti - 2004. 200 b.
6. Nishonova S. Milliy qadriyatlar va barkamol inson tarbiyasi. Xalq ta'limi. - T., 1999 №3-B.16-19.